

DINIY TAFAKKUR VA RAMZIY MA'NO

Shaxzoda Muxammadaliyeva

tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

[*shahzodaxon532@gmail.com*](mailto:shahzodaxon532@gmail.com)

Annotatsiya

Ushbu maqolada diniy tafakkurning ramziy ma'no anglatishdagi o'rni, o'ziga xosliklari tahlil qilingan. Ular badiiy asarlardan olingan misollar va o'zbek xalq maqollari orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: din, farishta, shayton, xalq, xarakter, ko'chma ma'no.

Religious thought and symbolic meaning

Shakhzoda Mukhammadaliyeva

supporting doctoral student

Tashkent state named after Alisher Navoi

University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

[*shahzodaxon532@gmail.com*](mailto:shahzodaxon532@gmail.com)

Annotation

This article analyzes the role and peculiarities of religious thinking in symbolic meaning. They are explained through examples taken from works of art and Uzbek folk proverbs.

Key words: religion, angel, devil, people, character, figurative meaning.

Ramziy ma'nolarning shakllanishida har bir xalqning diniy va milliy tafakkurining o'ziga xos o'rni bor. Chunki xalq ramziylikni tarixi, turmush tarzi,

dini, qadriyatlaridan, mentalitet va dunyoqarashidan ayri holda yaratmaydi. Shuning uchun ham ramziy ma'nolar ayrim mamlakatlarda o'xshash bo'lsa, ayrimlarida bir tushuncha umuman qarama-qarshi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, quyoshni salqin ob-havo sharoitida yashovchi Yevropa xalqlari issiqlik, ardoqlash va iltifot belgilari sifatida ijobiy baholashadi. Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida ularni juda qiyin ahvolga soladigan jazirama haroratga tenglashtirilib, salbiy baholanadi. Aslini olganda, bu kabi sodda ramzlar uzoq yillar davomida yig'ilgan tajribadan kelib chiqqan holda insonlarning ongida saqlanuvchi xotiraga aylanib qolgan.

Din va unga tegishli bo'lgan, uning ta'sirida vujudga kelishi mumkin bo'lgan g'ayri tabiiy voqea-hodisalarni idrok etish va to'g'ri anglab yetish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va uni boshqarish uchun islom ta'limotida ilgari surilgan axloqiy me'yorlar, shuningdek, Qur'oni karim va hadislar muhim diniy manba bo'lib xizmat qiladi¹.

Diniy tafakkur natijasida yuzaga kelgan insonning xarakterini ifodalovchi ilohiy tushunchalar keng ommalashgan. Bularga farishta, jannati va shayton kabi so'zlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Farishta so'zi "yaxshi xulq-atvorga ega bo'lgan va go'zal (ko'pincha ayollar haqida)" mazmunidagi ko'chma ma'noda ijobiy xarakterni ifodalaydi. Farishta birligida quyidagi semalar namoyon bo'ladi: "begunoh", "yoqimli", "jozibali", "beozor", "muloyim", "ezgulikka xizmat qiladigan"².

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da farishta so'zi quyidagicha izohlangan:

FARISHTA Islomda va b. ba'zi dinlarda xudoning amrini bajaruvchi g'ayritabiiy mavjudot; malak (farishtalar son-sanoqsiz bo'lib, har biri ma'lum vazifani bajaradi). *Ba'zi rivoyatlarga qaraganda, farishtalar jannatdagi kavsar suvidan.. qumg'onlarimizga quyib ketar emish.* M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari. *Farishta, maloyiklar — nurdan, siz bilan biz loydan yaratilgan.*

¹ Jumayev J. O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotida diniy tafakkur evolutsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. Fil. fan. fal. dok. diss. avtoreferati. – Samarqand, 2023. – B. 14.

² Abdullayeva R. O'zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi. Monografiya. – Toshkent: Poytaxt exclusive, 2022. – B. 56.

“Malikai ayyor”.

2 ko‘chma Yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lgan va go‘zal (ko‘pincha ayollar haqida). *Bu xotin to‘g‘risida mulla Norqo‘zi shunday fikrda: agar farishta ilgari o‘tgan bo‘lsa — shuning onasi, endi tug‘ilsa — shuning bolasi bo‘ladi, agar hozir yer yuzida bo‘lsa — shu xotinning o‘zi.* A. Qahhor, Asarlar. *Vo ajabo! Bu kim bo‘ldi? Cho‘rimi yoki bir ofatijon farishtami?* Hamza, Boy ila xizmatchi.

3 ko‘chma Fayz, ziynat. *Ayolning sarishtasi — ro‘zg‘orning farishtasi.* Maqol. *Ha, ota — ko‘cha kishisi, ona uy farishtasi bo‘lar ekan.* L. Tojiyeva, Mehrim sizga, odamlar.

4 ko‘chma Pokiza, musaffo; begunoh. *Ajoyib odamsanda, do‘stim, ajoyibsan, farishtasan.* Shukrullo, Saylanma. *Shu kungacha Ravshan o‘zini halolman deb farishta sanab yurdi.* “Yoshlik”.

Farishta so‘zi o‘z o‘rnida teologik birlik bo‘lib, inson tabiatidagi ibo, hayo, sharm xususiyatlarini mubolag‘ali tarzda aks ettirishga yordam beradi. So‘z ko‘chma ma’noda qo‘llanilganda, inson tabiatidagi begunohlik, poklik xususiyatlariga ishora qiladi. So‘zda ijobiy hissiy-ekspressiv uzv mavjud va so‘zlovchining shaxsga nisbatan ijobiy munosabatini aks ettiradi³.

Ushbu leksemaning ramziy ma’noda ishlatilishi badiiy matnlarda va o‘zbek xalq maqollarida o‘z aksini topadi: “Erkakni ko‘ra turib yuzini berkitmaganiga Mulla Norqo‘zining g‘ashi keldi va shunday beibo xotining ichkariga — farishtalarning oldiga kirishini xohlamadi”⁴ misolida farishta so‘zi begunoh, pokiza ayolni, “Qari - uying farishtasi, Saranjomi, sarishtasi”⁵ maqolida esa fayz, ziynat ma’nosini anglatish uchun ishlatilgan.

Shayton ko‘chma ma’noda “ayyor”, “quv”, “aldamchi”, “firibgar”, “ustamon” semalari orqali insonning salbiy xarakterni ifodalaydi. Xususan, shayton obrazining frazemalar, maqollar, matallarda insonni yo‘ldan ozdiruvchi va umuman insondagi barcha yomon illatlarning sababchisi va homiysi sifatida

³ Abdullayeva R. O‘zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi. Monografiya. – Toshkent: Poytaxt exclusive, 2022. – B. 58.

⁴ Абдулла Қаҳҳор. Даҳшат (хикоялар тўплами). – Тошкент, 2008. – Б. 14.

⁵ Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 467.

keltirilishi fikrimizning yorqin dalilidir⁶.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da shayton so‘zi quyidagicha izohlangan:

SHAYTON 1 din. Odamlarni din yo‘lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig‘i; iblis. *Ey ulug‘ shoh, bu yo‘ldan qayt, shayton vasvasasiga uchma, keyin pushaymon bo‘lib yurma.. “Oltin beshik”. Boyni ham shayton yo‘ldan urgan.* K. Yashin, Hamza. *Ibodot qilmaslik umuman gunoh emas, lekin ibodat qilmagan kishi, shaytonning gapiga kirib qilmagani uchun, gunoh hisoblanadi.* A. Qahhor, Qabrdan tovush. *-Obbo, qizitaloq. Shaytonning domlasi ekan-a! Zakunchilarning ko‘pi shunaqa bo‘ladi, — dedi Tantiboyvachcha papirosji tortib.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 ko‘chma Ayyor, quv odam; aldamchi. *Anavi magazinchi bor-ku. O‘lgudek shayton..* R. Fayziy, Cho‘lga bahor keldi.

3 ko‘chma Sho‘x, o‘ynoqi. *Qiz bola shayton bo‘ladi-da, tavba, bo‘y-basti cho‘zilib, rostdan ham, suqsurdek qiz bo‘libdi.* SH. Toshmatov, Erk qushi. *-Ha, shayton qiz, — dedi O‘rinboy, — shu yerda ham qo‘ymaysan-a? Oydin, Kelin o‘g‘il tug‘ibdi. Bizning Avazga o‘xshagan bitta shaytonrog‘i “Yigirma oltinchisi otilmasin!” deb qiyqiradi.* S. Siyoyev, Yorug‘lik.

O‘zbek xalq maqollarida shayton obrazi bir qancha o‘rinlarda va bir qancha ma’nolarda qo‘llanadi:

Yettovdan birov – shayton;

Ishlanmagan ishga shayton kular;

Tek turganga shayton tayoq tutqazar;

Firibgarga shaytonning havasi kelar⁷.

*Notanish begonadan tanish shayton o‘ng‘ay*⁸ maqolida esa shayton so‘zi dushman ma’nosini anglatish uchun ishlatilgan, ya’ni raqib insonni ramziy ma’noda bildirib kelgan. Ushbu maqol orqali xalqimiz tanimagan, bilmagan

⁶ Abdullayeva R. O‘zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi. Monografiya. – Toshkent: Poytaxt exclusive, 2022. – B. 58.

⁷ Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 16, 29, 35, 48.

⁸ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси, 1990. - Б. 276.

insondan ko'ra inson o'zi biladigan, raqiblik qilib yurgan dushman yaxshiligi, chunki odam shunga qarab ish qilishi, hisobini qilishini, sinalmagan insonga ishonib, qiyin ahvolga tushib qolishi hech gap emasligini uqtiradilar.

Shayton va farishta juftligi bugungi dunyo dinlarining barchasida mavjud. Shu bois farishta obraziga insonga xos bo'lgan barcha ijobiy xususiyatlarni nisbat berish, aksincha, shayton obraziga barcha salbiy xususiyatlarni nisbat berish an'anasi xalqlar madaniyatidagi mushtarak jihat sanaladi. Masalan, mifologik obrazlar: alvasti, pari, ajina so'zlarida salbiylik / ijobiylik semasi mavjud⁹.

Xulosa qilib aytganda, ramziy ma'nolarning shakllanishida xalq diniy tafakkurining ham o'ziga xos o'rni bor. Ushbu ma'nolar ijobiy yoki salbiy jihatidan farqlanishida diniy ta'limotdagi qarashlar asosiy rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva R. O'zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi. Monografiya. – Toshkent: Poytaxt exclusive, 2022.
2. Абдулла Қаҳҳор. Даҳшат (хикоялар тўплами). – Тошкент, 2008.
3. Jumayev J. O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotida diniy tafakkur evolutsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. Fil. fan. fal. dok. diss. avtoreferati. – Samarqand, 2023.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
5. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси, 1990.

⁹ Abdullayeva R. O'zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi. Monografiya. – Toshkent: Poytaxt exclusive, 2022. – B. 59.
www.tadqiqotlar.uz